

**KICHIK BIZNES KORXONALARI FAOLIYATIDA BOSHQARUV
SAMARADORLIGIGA ERISHISHNING YO‘LLARI.**

Shirnova Shahnoza Abdinabiyevna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti assistenti.

Xo‘jayeva Aziza Bekpo‘lotjonovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes korxonalarining milliy iqtisodiyotimizdagi tutgan o‘rni hamda kichik biznes korxonalarini boshqarish va rivojlantirish masalalari bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda strategik maqsad sifatida tasdiqlanganligi sababli, dolzarb bo‘lib bormoqda. Turli tadqiqotchilar, mutaxassislarning turli ishlari o‘rganiladi, tahlil qilinadi. Kichik biznes korxonalarida boshqaruvning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi hamda zamonaviy boshqaruvni samarali tashkil etish bo‘yicha usullar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, milliy iqtisodiyot, strategik boshqaruv, strategik maqsad, davlat, yalpi ichki mahsulot, boshqaruv usullari.

Аннотация: В данной статье роль предприятий малого бизнеса в нашей национальной экономике, а также вопросы управления и развития предприятий малого бизнеса сегодня становятся все более актуальными, поскольку они утверждаются в качестве стратегической цели в нашей национальной экономике. исследователи и специалисты изучаются и анализируются. Рассмотрены преимущества и недостатки управления на предприятиях малого бизнеса, предложены методы эффективной организации современного управления.

Ключевые слова: малый бизнес, национальная экономика, стратегическое управление, стратегическая цель, государство, валовой внутренний продукт, методы управления.

Abstract: In this article, the role of small business enterprises in our national economy, as well as issues of management and development of small business enterprises are becoming more relevant today, as they are approved as a strategic goal in our national economy. Different works of various researchers and specialists are studied and analyzed. The advantages and disadvantages of management in small business enterprises are considered, and methods for effective organization of modern management are offered.

Key words: small business, national economy, strategic management, strategic goal, state, gross domestic product, management methods.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatlariga o‘tishni tezlashtiruvchi yo‘llardan biri-bu kichik biznes korxonalarini rivojlantirish hisoblanadi. Oxirgi yillarda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohot va yangilanishlar avvalida iqtisodiyotimizdagi miqdor va sifat o‘zgarishlari qamrovini kengaytirish, uning bevosita aholi turmushiga ta’sirini oshirishga e’tibor qaratilayotganligi boisi ham shundan iboratdir. Xususan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 29-maqсадida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish kabi bir qator dolzarb masalalar belgilab qo‘yilgan[1]. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda kichik biznes korxonalarida strategik boshqaruvni samarali tashkil etish eng avvalo, iqtisodiyotning yetakchi soha va tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiyl barqarorlik ta‘minlanishining mustahkam poydevori hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Har qaysi mamlakat taraqqiyotida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiyl o‘zgarishlarning eng muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti va modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik ijtimoiyl hayotda qator funksiyalarni bajaradi. Iqtisodiy vazifa tadbirkorlikni keng quloch yoydirish bilan bog‘liq bo‘lib, raqobat muhitini shakllantirish, bozorni turli tovarlar va xizmatlar bilan to‘ldirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirishga qaratilgan. Ijtimoiyl vazifa esa, yangi ish joylari tashkil qilish orqali bandliknita‘minlash, aholining daromadini oshirish yo‘li bilan uning turmush darajasini ko‘tarishni nazarda tutadi. Uning siyosiy vazifasi jamiyat iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini – o‘rta mulkdorlar sinfining shakllanish manbai sifatida namoyon bo‘lishidadir.

Ko‘pgina xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning mazmun mohiyati, uni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o‘rni hamda ahamiyati to‘g‘risida ilmiyl tadqiqotlar va ilmiyl izlanishlar olib borgan. Jumladan V.Dolya, R.Xizrich, M.Piters, A.G.Aganbegyan, A.Komov va boshqalarning ilmiyl tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

Xorijlik olimlardan R.S.Kaplan, D.P.Norton asarlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari keng yoritib berilgan[2].

I.Ansoffning qarashlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning istiqbollarni o‘rganish va ularga ta’sir qiluvchi omillarni baholash muhim o‘rin

tutishi[3], uning qarashlarida korxonada doim mavjudlik bilan ishlashi, uning uzoq muddatli faoliyati uchun prognozlar tuzish, ekstrapolyatsiya usulini qo'llash zarur ekanligini bildirib o'tgan.

Mahalliy ilmiy tadqiqotchi olimlarimizdan R.S.Muratov, I.A.Djalolova, S.Sh.Oripovlarning ilmiy qarashlarida korxonada alohida ob'jekt sifatida qaralib, uning mazmuni va mohiyati, qo'yiladigan talablar, ko'rsatkichlari tizimi, moliyaviy holati barqarorligi va boshqaruvi bo'yicha keng yoritib berilgan[4].

I.O.Ulashev, Sh.A.Atamuradovlarning ilmiy qarashlarida korxonalar faoliyatini boshqarish mexanizmi muammolari, boshqarish usullari, muammolarni yechish bo'yicha takliflar, boshqaruv bo'yicha optimal variantlarni tanlash, korxonalar samaradorligini oshirishda baholash kabi masalalar yoritib berilgan[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida iqtisodiy adabiyotlar, iqtisodchi olimlarning kichik biznes korxonalari, ularning faoliyatidagi strategik boshqaruv uslubiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlari, maqolalari, olib borilgan tadqiqot ishlanmalari bo'yicha tahlil qilish, eksport baholash, iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni kuzatish, ular bo'yicha tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan bo'lib, ushbu mavzuni o'rganish jarayonida bir qator iqtisodiy usullar bilan birgalikda nazariy va amaliy ma'lumotlarni jamlash, taqqoslash hamda tizimli yondashuv asosida tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Korxonada to'g'risida tushuncha hosil qilish va mazmunan tushunish muhim iqtisodiy ahamiyatga egadir. Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda korxonada to'g'risida turlicha fikrlar keltirib o'tilgan. Jumladan R.S.Muratov, I.A.Djalolova, S.Sh.Oripovlarning "Korxonada iqtisodiyoti" darsligida korxonaga quyidagicha ta'rif keltirilgan. Korxonada-ijtimoiy talablarni qondiruvchi va of foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi iqtisodiyot sub'yektidir[4]. I.O.Ulashev, Sh.A.Atamuradovlarning "Korxonada iqtisodiyoti va menejmenti" o'quv qo'llanmasida esa korxonaga quyidagicha ta'rif keltirilgan. Korxonada-bu jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanuvchi, aholining talabini qondirish va foyda olish yoki boshqa ijtimoiy funksiyalarni bajarish maqsadida, xususiyl resurslardan foydalanish asosida mahsulotlar ishlab chiqaradigan, ayirboshlaydigan hamda boshqa ishlarni va xizmatlarni bajaradigan, faoliyati bo'yicha qarorlar qabul qiladigan va unga javobgar, huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan, har xil o'lchamdagi xo'jalik yurituvchi sub'yektidir[5]. Demak, fikrimizcha huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan, mulkchilik yoki xo'jalik yuritish huquqi bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulkdan foydalanishi asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi, mulkchilikning barcha shakllari teng huquqligi sharoitida amaldagi

qonunlarga muvofiq o'z faoliyatini bajaradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yekt korxonaga hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxonaga o'z faoliyati davomida davlat, yuridik shaxslar va fuqarolar bilan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlarga bo'ladi hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida o'z hissasini qo'shadi. Xususan mamlakatimizda tadbirkorlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash natijasida, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 38,1 mingtadan ortiq kichik korxonaga va mikrofirmalar tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,6% ko'p demakdir. Eng ko'p kichik mikrofirmalar savdo sohasida 23,1%, sanoat tarmog'ida 22,4%, qurilish tarmog'ida 12,9%, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11,8%, yashash va ovqatlanishda 7,7%, tashish va saqlashda 4% tashkil etilgan. 2023-yilning yanvar-martida 13,2 mingtadan ortiq kichik korxonaga va mikrofirmalar tashkil qilingan.[6] Kichik biznes korxonalarida samarali boshqaruv tizimini tashkil etish korxonaning istiqboliga ham ta'sir etibgina qolmay, mamlakatning iqtisodiy o'sishida ham katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatida strategik boshqaruvni samarali tashkil etish ko'zlangan maqsadlarga yetaklaydi. Kichik biznes korxonalarida strategik boshqaruv operatsiyalar, marketing, moliya, inson resurslari kabi bir qancha funktsiyalarni o'z ichiga oladi. U har bir bo'limni eng yuqori darajada boshqarishni talab qiladi. Asosiy e'tibor maqsadlarga erishish uchun tashkilotlarda harakat rejalarini rejalashtirish, monitoring qilish, tahlil qilish, baholash va amalga oshirishga qaratilgan. Biroq, strategiyani amalga oshirish vaziyatga va resurslarning mavjudligiga bog'liq. Bu jarayonda xatolikka o'rin yo'q, shuning uchun harakat rejasini boshlashdan oldin to'g'ri baholash kerak.



Strategik boshqaruv jarayoni, aslida, rahbar biznesning yaxshi natijalariga erishish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan qadamlar to'plamidir. Jarayon falsafiy yondashuvga bog'liqdir. Strategik boshqaruv jarayonini rejalashtirish atrof-muhitni tahrirlashdan boshlanadi va keyin siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni o'rganish bosqichlari orqali tizimli ravishda davom etadi. Strategik boshqaruv jarayonining bosqichlari korxonaning missiyasi, maqsadlari va strategiyalarini belgilash, tashqi muhitni tahlil qilish, Ichki muhitni tahlil qilish, strategiyalarni shakllantirish, strategiyalarni amalga oshirish va natijalarni baholashdan iborat. Tashqi muhitni baholash va tahlil qilish, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni ko'rib chiqadi. Strategiyani shakllantirish strategiyani shakllantirish uchun atrof-muhit omillaridan foydalanadi. Strategiyani amalga oshirish turli bosqichli jarayon bo'lib turli omillarni o'z ichiga oladi. Strategiyani baholash va nazorat qilish - bu asosiy natijalar strategiyaga muvofiq to'g'ri kelishi va doimiy nazorat qilinishi uchun tekshiriladi.



Strategik boshqaruv jarayonining asosiy tarkibiy qismlari kompaniya missiyasini aniqlash, kompaniya maqsadini belgilash, tashqi muhitni baholash va tahlil qilish, strategik alternativlarni tahlil qilish, strategiyani tanlash, strategiyani kiritish, strategiyani baholash, so'ngra siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni o'rganishni davom ettirishdir. Jarayon samarali bo'lishi uchun har bir bosqich boshidan oxirigacha tartibda bajarilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes yuritish, iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish uchun zarur shart-sharoit va qulay muhit yaratish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Kichik biznesning jadal rivojlanishi iqtisodiyotni liberallashtirish va sifat jihatidan yangi ishbilarmonlik muhitini yaratish bilan bog'liq. Bu xo'jalik yuritishda xarajatlar darajasining qisqarishiga va moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining oshishiga olib keldi va ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko'proq mablag' sarflash imkonini berdi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti asoslari yaratilgan dastlabki yillardanoq qonunchilik bazasini rivojlantirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tashkil etishga katta e'tibor qaratdi. Kichik biznes korxonalarida samaradorlikka erishish, ularning faoliyati davomida avvalo, boshqaruvning maqsadlari, vositalari, va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Yuqori sifatdagi va raqobatbardosh mahsulotlarni eng kam xarajat asosida ishlab chiqarish eng ko'p daromad olishni ta'minlaydi, samarali strategik boshqaruvni tashkil etish korxonalar oldida turgan eng asosiy vazifalaridan biridir. Strategik boshqaruv kichik biznesning bugungi raqobat sharoitida rivojlanishi uchun muhim vositadir. Kichik biznesda strategik boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha bir nechta asosiy yo'nalishlar bo'yicha tizimli faoliyat olib borish korxonaning samarali faoliyat yuritishida ko'zlangan maqsadlarga olib boradi.

1. Korxonalarining aniq tasavvur va missiyani ishlab chiqish;
2. Korxonalarda SWOT tahlilini o'tkazish;
3. Strategik rejani ishlab chiqish;

4. Samarali yetakchilikni amalga oshirish:
5. Texnologiyadan foydalanish:
6. Mijozlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish:

Ushbu strategik boshqaruv tamoyillarini amalga oshirish orqali kichik biznes uzoq muddatli muvaffaqiyat va barqarorlik imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2022-2026 –yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida . <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. R.S.Kaplan,D.P.Norton. Organizatsiya,orientirovannaya na strategiyu.Kak v novoy biznes-srede preuspevayut organizatsii,primenyayushie s balansironannuyu sistemu pokazateley/per,sangl.M:ZAO Olimp-Biznes.2004-416 s
3. I.Ansoff.Strategicheskoye upravleniye-M.:Ekonomika,1989—358 s.
4. Muratov R.S.,Djalolova I.A.,Oripov S.Sh.,Korxonona iqtisodiyoti.Darslik-Toshkent, 2014,35-b
5. Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A Korxonona iqtisodiyoti va menejmenti.O'quv qo'llanma .Toshkent -2013, 24-b
6. Axunova, S. N. (2021). Innovative technologies in the digital economy. *Theoretical & Applied Science*, (1), 290-292.
7. Namanzhanovna, A. S., & Shokhsanam, T. (2023). Global trends and prospects for the development of the innovation economy in uzbekistan.
8. Shirinova, S. A. (2024). KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BARQAROR IQTISODIY O 'SISH GAROVI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 689-692.
9. Abdusalomov, M. (2024). Revolutionizing Classrooms: The Role of AI in Personalized Learning and Student Engagement. *DTAI-2024*, 1(DTAI), 402-404.